

XITOIY TILIDA HIS-HAYAJONNI IFODALOVCHI SO‘ZLARNING TURKUMLARGA XOSLIK MASALASI

Tashmuxeamedova (Azimova) Dildora Aziz qizi

Dildora_Azimova_98@mail.ru

Oriental universiteti, G‘arb tillari kafedrası

Stajyor, o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada xitoy tilida his-hayajonni ifodalovchi so‘zlar tasnifi, xitoy tili grammatikasida ularning tutgan o‘rni tahlil qilingan holda ularning qaysi turkumga xosligi borasida so‘z yuritiladi. Undov so‘zlarni tasniflashda so‘z turkumlarining ahamiyati va his-hayajonni bildiruvchi so‘zlarning turkumlanishi bilan bir qatorda muallif xitoy tilshunos olimlari Zhu Dexi (朱德熙) va Ding Shengshu (丁声树) boshchiligidagi bir necha tilshunos olimlar guruhi qarashlari va ular o‘rtasidagi farqlarni yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: So‘z turkumlari, mustaqil so‘zlar, yordamchi so‘zlar, his-hayajon so‘zlari, undov so‘zlar, ovozga taqlid so‘zlar.

Insoniyat tarixida til, xususan, so‘zlar shakllanishidan ham avvalroq paydo bo‘lgan tovushlar ya’ni, his-hayajonni ifodalovchi tovushlar mavjud edi. Ilk odamzot paydo bo‘lganida so‘zlashuv vositasi o‘rnida o‘zlarining xursandchilik, xafalik, qo‘rquv, mamnuniyat, rozilik, hatto ochlik singari hissiyotlarini ham aynan hozirgi kunda his-hayajon so‘zlari (o‘zbek tilida his-hayajon undovlari yoki undov so‘zlar) nomi ostida birlashgan tovushlar orqali izhor etganlar. Undov so‘zlarning eng ahamiyatli jihati ham aynan uning tildan avval paydo bo‘lganligi va so‘zlovchining butun holatga yoki vaziyatga nisbatan munosabatini oddiygina tovush orqali namoyon etishidir.

Xitoy tili grammatikasi o‘ziga xos, murakkab va ba’zi chalkashliklarga ega til hisoblanganligi uchun ham, his-hayajonni anglatuvchi so‘zlarning tasnifi doim ko‘pgina munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. Bir qancha xitoy tilshunos olimlari ularni tadqiq qilish bo‘yicha bir qancha nazariy qarashlarni ilgari surishgan. Quyida ayrim taniqli tilshunos olimlarning so‘z turkumlari, xususan, undov so‘zlar turkumlanishi borasidagi qarashlarini ko‘rib chiqamiz.

Zhu Dexi (朱德熙) insonning biror vaziyatga munosabatini bildirib, tuyg‘u va hislarini o‘zida aks ettirgan tovushlar his-hayajonni ifodalovchi so‘zlardir, deb ta’riflaydi. Olim xitoy tili so‘zlarini 17 ta turkumlarga ajratadi va ulardan 2ta katta guruh hosil qiladi (1-jadval)¹.

¹语去非义yǔfǎ jiǎngyì朱德熙文集Zhūdéxī wénjí. –北京商务印书馆běijīng shāngwù yìn shūguǎn, 1999年 46 – 50.

实词 <i>shí cí</i>	体词 <i>tǐ cí</i>	1. 名词 <i>míng cí</i> 2. 处所词 <i>chù suǒ cí</i> 3. 方位词 <i>fāng wèi cí</i> 4. 时间词 <i>shí jiān cí</i> 5. 区别词 <i>qū bié cí</i> 6. 数词 <i>shù cí</i> 7. 量词 <i>liàng cí</i> 8. 代词 <i>dài cí</i>
	谓词 <i>wèi cí</i>	9. 动词 <i>dòng cí</i> 10. 形容词 <i>xíng róng cí</i>
虚词 <i>xū cí</i>		11. 副词 <i>fù cí</i> 12. 连词 <i>lián cí</i> 13. 介词 <i>jiè cí</i> 14. 助词 <i>zhù cí</i> 15. 语气词 <i>yǔ qì cí</i>
		16. 拟声词 <i>nǐ shēng cí</i> 17. 感叹词 <i>gǎn tàn cí</i>

1-jadval

So‘zlarning gapda qanday vazifa bajara olishi va mustaqil turkum sifatida so‘roqqa javob bo‘la olishi nuqtai nazaridan 实词 *Shí cí* (mustaqil so‘z turkumlari) va 虚词 *xū cí* (yordamchi so‘zlar) kabi ikki guruhga ajratadi. U o‘z qarashlarini so‘zlarning funksiyalarini tahlil qilish orqali izohlaydi. 实词 *Shí cí* alohida ma’no anglatadigan, gapda bosh va ikkinchi darajali bo‘lak bo‘lib kela oladigan, narsa-buyum, ish-harakat, holat, sifat, joy va vaqt singari ma’nolarni bildiradigan so‘zlardir. 虚词 *xū cí* esa asosan, gap bo‘laklarini bog‘lab beruvchi so‘zlar yoki grammatik strukturaning tarkibiy qismi bo‘lgan so‘zlar bo‘lib, ular o‘zi bog‘langan so‘zning gapdagi vazifasiga asosan xoslanadi va yakka holda ma’no anglatmaydi. Lekin, his-hayajonni bildirgan so‘zlar va ovozga taqlid so‘zlarni bu ikki guruhga kiritmay, alohida holda qoldirgan. His-hayajon so‘zlar gapga bog‘lanmasligi, gapda grammatik vazifa bajarmasligi, faqat ma’no xoslashga yordam berishi bilan yordamchi so‘zlarga o‘xshasa, o‘zi alohida ma’no anglatishi bilan mustaqil so‘zlarga yaqin. Balki shuning uchun ham Zhu Dexi bu ikkisini asosiy guruhlar tarkibiga kiritmagan.

Biroq, Zhu Dexi bizga his-hayajonni bildiruvchi so‘zlar sifatida ma’lum bo‘lgan so‘zlarni 语气词 *yǔ qì cí* (yuklamalar) qatoriga kiritadi. U 语气词 *yǔ qì cí* (yuklamalar)ni 3 guruhga bo‘ladi va aynan uchinchi, boshqa ikkisidan farq qiluvchi guruhga insonning gapga munosabatini bildiruvchi his-tuyg‘ularini namoyon etuvchi so‘zlarni kiritadi. Bularga 啊 *a*, 呕 *ǒu*, 欸 *āi* va 嘿 *hēi* so‘zlarini misol qilib keltiradi².

² Zhudexi yuklamalarni 3 guruhga bo‘lgan: 1-guruh holatni bildiruvchi; 2-guruh buyruq-istak ma’nolarini beruvchi; 3-guruh insonning tuyg‘ularini anglatuvchi.

Yana bir xitoy tilshunos olimi Lu Shuxiang (吕叔湘) so‘z turkumlarini umumiy holda 7 guruhga bo‘ladi: 名词 *míngcí*, 动词 *dòngcí*, 形容词 *xíngróngcí*, 副词 *fùcí*, 代词 *dàicí*, 数词 *shù cí*, 关系词 *guānxì cí* va 语气词 *yǔqì cí*. U 语气词 *yǔqì cí* (yuklamalar)ni uch qismga ajratadi (语种 *yǔzhǒng*, 语尾 *yǔwěi* va 独立 *dúlì*) va his-hayajonni bildiruvchi so‘zlarni 独立 *dúlì*, ya’ni mustaqil yuklamalar tarkibiga kiritadi³ va bu bilan his-hayajonni bildiruvchi so‘zlar gapga bog‘lanmasligi, u bilan sintaktik aloqaga kirishmasligi va mustaqilligini izohlab beradi. Biroq, uning fikri biroz noaniqroq bo‘lib, yuklamalar oddiygina qo‘shimcha ekanligi, so‘zning qaysidir qismiga bog‘lanishini hisobga olmagan. His-hayajonni bildiruvchi so‘zlarni yuklamalar qatoriga qo‘shib qo‘yish uni so‘z darajasidan chetashtiradi va oddiygina qo‘shimchaga aylantirib qo‘yadi, bu esa inson tuyg‘ularining yozuvdagi aksini alohida so‘z turkumi doirasiga kiritishga halal beradi.

His-hayajonni bildiruvchi so‘zlar insonning har xil tuyg‘ularini aks ettiradi va ular odatda gap oldidan kelib avvalo, gapning ohangini belgilab beradi. Demak, ular gapning mazmuniga ham bevosita ta’sir qiladi, bu esa so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatni ma’lum bir yo‘sinda shakllanishiga olib keladi.

Lu Shuxiang xitoy tilida his-hayajonni bildiruvchi so‘zlarda ba’zi murakkabliklar borki, ular aynan xitoy belgilari va bir-biriga o‘xshash tovushlar bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Birinchidan, shunday tovushlar borki, ular bir vaqtning o‘zida turli xil tuyg‘ularni aks ettiradi, ya’ni bir tovushni xursandchilik uchun qo‘llasak, aynan o‘sha tovushdan boshqa vaqtlarda qayg‘uni ifodalash uchun foydalanamiz. Ikkinchidan, bir xil jaranglovchi tovushlar yozuvda turlicha ifodalanishi mumkin.

Ding Shengshu (丁声树) boshchiligidagi bir necha tilshunos olimlar guruhi esa xitoy tili so‘zlarini 10 ta turkumga ajratadi (2-jadval) va undov so‘zlar turli tovushlarni aks ettirgani va hech qanday ma’no anglatmay, faqatgina insondan chiqayotgan tovushlarni namoyon etgani uchun ham 感叹词 *gǎntàn cí* (undov so‘z)ga oid so‘zlarni 象声词 *xiàngshēngcí* (ovozga taqlid so‘zlar) qatorida sanab o‘tadi: 啊 *a*, 唉 *āi*, 喂 *wèi*, 哼 *hēng*, 哟 *yō*, 啦 *la*, 嗨 *hāi*⁴.

1.	名词 <i>míngcí</i>
2.	代词 <i>dàicí</i>
3.	数词 <i>shù cí</i>
4.	量词 <i>liàngcí</i>
5.	动词 <i>dòngcí</i>

³吕叔湘全集 *Lǚshūxiāng* 中国文法要略 *Zhōngguó wénfǎ yàolüè* 辽宁教育出版社, 19页, 2012年.

⁴现代汉语去声 *xiàndài hànǚ yǔfǎ* 吕叔湘 *lǚshūxiāng* 李荣 *lǐróng* 孙德宣 *sūndéxuān* 管燮初 *guǎn xiè chū* 傅婧 *fù jìng* 黄盛璋 *huángshèngzhāng* 陈治文 *chén zhìwén*. – 商务印书馆文库 *Shāngwù yìn shūguǎn wénkù* – 北京 1999年, 7.

6.	形容词 <i>xíngróngcí</i>
7.	副词 <i>fùcí</i>
8.	连词 <i>lián cí</i>
9.	助词 <i>zhùcí</i>
10.	象声词 <i>xiàngshēngcí</i>

2-jadval

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yuqoridagi tilshunos olimlarning turli qarashlaridan kelib chiqib, xitoy tilida his-hayajonni bildiruvchi so‘zlar insonlarning o‘zaro munosabati orqali yaralgan, ular alohida so‘z turkumi doirasida so‘z maqomiga erishgan, gapga sintaktik bog‘lanmaydigan va gapdan vergul bilan ajatiladigan so‘zlar qatoriga kiritilishi lozim, deb hisoblaymiz. His-hayajonni bildiruvchi so‘zlarning o‘zi ham ma‘no anglatish doirasiga ko‘ra bir necha guruhlariga bo‘linadi va bu yaxlit so‘z turkumi bo‘lishga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 现代汉语词典 *Xiàndài hànǔyǔ cídiǎn* (Modern Chinese dictionary) – 商务印书馆创立115周年纪念版/中国社会科学院语言研究所词典编辑室编。—6版。—北京：商务印书馆、2012、1874页
2. 语法讲义 *yǔfǎ jiǎngyì* 朱德熙文集 *Zhūdéxī wénjí*. –北京商务印书馆, 1999年. 390页.
3. 现代汉语语法讲 *xiàndài hànǔyǔ yǔfǎ jiǎng* 吕叔湘 *lǚshūxiāng* 李荣 *lǐróng* 孙德宣 *sūndéxuān* 管燮初 *guǎn xiè chū* 傅婧婧 *fùjìngjìng* 黄盛璋 *huángshèngzhāng* 陈治文 *chén zhìwén*. – 商务印书馆文库 – 北京, 1999年, 228页.
4. 吕叔湘全集 *Lǚshūxiāng* 中国文法要略 *Zhōngguó wénfǎ yàoliè* 辽宁教育出版社, 2012年, 481页.